

**“MAKTABGACHA TA'LIM
– MAKTAB – OLIY TA'LIM”
KONSEPSIYASI: MUAMMO,
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MATERIALLARI**

2022-yil, 9-aprel

Buxoro – 2022

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM FAKULTETI**

MAKTABGACHA TA‘LIM KAFEDRASI

**MAKTABGACHA TA‘LIM – MAKTAB – OLIY TA‘LIM” KONSEPSIYASI:
MUAMMO, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR**

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI

MATERIALLARI

(ikkinchi to‘plam)

2022-yil, 9-aprel

Buxoro – 2022

- 1 Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o`qitish metodikasi.T.,O`qituvchi, 2005-174b
- 2 Sayfullayev G`.M. Tabiatshunoslik darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish Globe Edit 2020
- 3 Baxromov A. Atrofimizdagi olam (1-2-sinf uchun darslik) T. « Cho`lpon» Nashriyoti 2018y

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI NUTQ TOVUSHLARINI TALAFFUZ QILISHGA O`RGATISHISH

Nizomova Shohista Shodiyevna

BuxDU maktabgacha ta`lim kafedrası o`qituvchisi

Ubaydullayeva Pokizabonu Qahramon qizi

BuxDU maktabgacha ta`lim yo`nalishi, 14-10MT-20 guruh talabasi

Annotatsiya: Maktabgacha ta`lim tizimida bolalar nutqini o`stirishning poydevori bu fonetik idrokni shakllantirishdir. Chunki har qanday nutq avvalo tovushlardan tashkil topadi. Bola ilk dunyoga kelgan kundanoq ovoz chiqaradi. Garchi bu ovoz yig`i yoki chinqiriq bo`lsa ham uni tovush deb atasak bo`ladi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning yosh bosqichlarida tovush madaniyatini shakllantirish haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so`zlar:nutq,bo`g`in,talaffuz,tafakkur,sharoit

Аннотация:Основой речевого развития детей в дошкольном образовании является формирование фонетического понимания. Ведь любая речь в первую очередь состоит из звуков. Ребенок издает звук со дня рождения. Хотя это крик или крик, его можно назвать звуком. В статье рассматривается формирование звуковой культуры на ранних этапах речевого развития у дошкольников.

Ключивые слова: речи, слог, акцент, мышление, условия

Annotation:The foundation of children's speech development in preschool education is the formation of phonetic comprehension. Because any speech is first and foremost made up of sounds. The baby makes a sound from the day it is first born. Although it is a cry or a scream, it can be called a sound. This article discusses the formation of sound culture in the early stages of speech development in preschool children.

Key words: speech, joint, pronunciation, contemplation, conditions

Maktabgacha yoshdagi (bolalar) asosan 6-7 yoshli bolalar maktabga tayyorgarligining asosiy belgilaridan biri nutqini rivojlanganligidir. Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida har bir guruhda nutq o`stirish bo`yicha egallashi lozim bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalarining mezoni ko`rsatilgan. O`z vaqtida muntazam kundalik faoliyatda, mashg`ulotlar jarayonida dasturda ko`rsatilgan vazifalar amalga oshirilsagina kutilgan natijaga erishiladi.

Bola 1- sinfga nutqi jihatidan benuqson holatda kelsa barcha fanlardan o`zlashtirishiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Grammatik jihatdan to`g`ri tovush talaffuzini har tomonlama rivojlantirishni nazarda tutadi. Nutq qobiliyati ma`lumki kishilarning tug`ma qobiliyati emas. Nutq bolalarda sekin – asta rivojlanadi. Ba`zan bir xil yoshdagi bolalar nutqi kuzatilganda ular darajasining har xilligini ko`rish mumkin. Demak, bola nutqining rivojlanishi tevarak – atrofdagilarning (ota – onalarning , tarbiyachilarning) qanchalik e`tibor berishiga bog`liqdir.

Bolaning ilk yoshlik davridan boshlab oila a`zolari, bog`chada tarbiyachilar har bir narsaning nomini to`g`ri talaffuz qilgan holatda, chuchuk tilda gapirmasdan murojaat qilishlari lozim.

3-4 yoshli bolalar nutqida hamma tovushlar mavjud bo`lib, bu tovushlar ustida ishlash zarur. Chunki mazkur davr tovushlarni o`zlashtirish davri hisoblanadi. Katta guruhgacha hamma tovushlar ustida ishlanadi. Maktabda tayyorlov guruhda esa aralashib ketadigan tovushlarni ajratishga o`rgatiladi.

Tovush talaffuzini tarbiyalash bo`yicha ishni boshlashdan oldin tarbiyachi o`z guruhidagi har bir bolaning nutqi bilan tanishib chiqishi kerak . Nutqni tekshirish yilda ikki marta kuzda va bahorda olib boriladi. Kuzda ishlarini to`g`ri rejalashtirish, bahorda-

qilingan ishlarga yakun yasash maqsadida tekshirishda tarbiyachi:

- a) tovush talaffuzi holatiga
- b) lugʻatiga
- c) maʼnoli nutqiga eʼtibor qaratadi.

Bola nutqidagi buzilishlar qayd qilinadi. Agar juda qoʻpol buzilishlar boʻlsa, bolaning sogʻligi bilan tanishib chiqishga toʻgʻri keladi. Koʻpincha bolaning 3 yoshlik davrida turli yuqumli kasalliklar bilan ogʻrishi, uning oʻsishini toʻxtatib qoʻyadi. Bu oʻz navbatida nutqining rivojlanishiga ham salbiy taʼsir koʻrsatadi. Bunday bolalar bilan alohida koʻproq ishlashni rejalashtirishga toʻgʻri keladi.

Bolaning tovush talaffuzini tekshirish vaqtida buyumli rasmlar nomini aytirishda lugʻat tarkibi, grammatik qurilishi ham kuzatiladi. Gapda soʻzlar oʻrnini almashtirmayotganligi, boʻgʻinlar tashlab ketilmayotganligi aniqlandi. Tarbiyachi soʻzlardan gaplar tuzishga, gaplarda bogʻlovchilarni ishlatishga, kelishik qoʻshimchalaridan toʻgʻri foydalanishga oʻrgatishda mazmunli rasmlardan foydalanadi. Oldin ikki, keyin uch, toʻrt, soʻngra undan ortiq soʻzlardan foydalanib gap tuzishga oʻrgatadi. Tarbiyachi bu ishlarni amalga oshirishda bolalarning yosh va oʻziga xos xususiyatlarini taʼlimning didaktik tamoyillarini hisobga oladi.

Rasmning nomini aytishda bola talaffuz etilishi lozim boʻlgan tovushni biron marta ham ayta olmasa, aynan shu tovushni soʻzda emas, balki alohida oʻzini talaffuz ettirib koʻriladi. Tarbiyachi oldin aytadi, agar bola alohida talaffuz qila olsa keyin soʻzlarda toʻgʻri talaffuz qilishga oʻrgatiladi. Bola nutqini tekshirish vaqtida uning notoʻgʻri tovush talaffuzini, soʻzlarini gaplarini takrorlamaslik kerak. Bu bola nutqiga salbiy taʼsir koʻrsatadi, hatto notoʻgʻri tovush talaffuzining mustahkamlanib qolishiga sabab boʻladi. Kundalik hayot jarayonida nutqini tekshirish vaqtida bolalar nutqining tezligi, soʻz jumalarning aniqligi, ovozning jarangdorligiga, duduqlanishga tarbiyachi eʼtibor beradi va ota-onalari bilan hamkorlikda kamchiliklarni bartaraf qiladi. Tekshirish natijasini jadvalda qayd qiladi.

“Lugʻat boyligi”, “Soʻzlarning qurilishi”, “tovush talaffuzi”, “Izoh” boʻlimlarini toʻldiradi. Shunga asosan ertalab va kechki soatlarda qaysi bolalar bilan nima ustida ishlashni rejalashtiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqida eng koʻp uchraydigan kamchiliklardan biri, bu tovush talaffuzining buzilishidir.

- u yoki bu tovushlarni yaxshi talaffuz eta olmaslik

-bir tovushni ikkinchi bir tovush bilan almashtirib talaffuz etish

-bor boʻlgan tovushni buzib talaffuz etish bogʻchada tovushlarni talaffuz etishni shakllantirish ishi boʻyicha olib boriladigan ishlar toʻgʻri yoʻlga qoʻyilsa bola nutqidagi kamchiliklar 5-6 yoshga toʻlguncha batamom toʻgʻrilash mumkin. Agar shugʻullanish natijasi yaxshi boʻlmasa logopedga murojaat qilish lozim.

Tarbiyachi maktabgacha taʼlim tashkilotlarida nutq oʻstirish mashgʻulotlarda, kundalik faoliyatda bolalar nutqini rivojlantirishni, kamchiliklarni bartaraf qilishni nazarda tutishi lozim. Boshqa mashgʻulotlarda ham bola toʻliq jumla tuzib beradigan qilib savol berish maqsadga muvofiq. “Ha”, “Yoʻq” tarzida javob beradigan qilib savol berish tarbiyachining katta xatosidir. Bola uchun yangi boʻlgan soʻzlarning maʼnosini sodda qilib tushintirish soʻz boyligini oshiradi. Nutq oʻstirish mashgʻulotlarida tarbiyachi aynan nutq oʻstirishga taalluqli maqsadni koʻzlagan holda mavzu tanlashi lozim. Muayyan tovush ustida ishlangan, lugʻatni boyitishga gapning qurilishiga rioya qilinishiga qaratilgan oʻyinlar mashgʻulot mazmunini tashkil qilishi kerak. Baʼzan tarbiyachilar nutq oʻstirish mashgʻulotlarini tabiat bilan tanishtirish, badiiy adabiyot tevarak-atrof bilan tanishtirish mashgʻulotlari bilan tanishtirish mashgʻulotlari bilan aralashtirib yuboradilar. Nutq oʻstirish mashgʻulotlarida nutq oʻstirish boʻyicha dasturda koʻrsatilgan vazifalar, davlat talablaridagi koʻrsatilgan talablar koʻzda tutiladi.

Maktab yoshiga yetgan bolalarning nutqi va tafakkurining rivojlanganlik darajasiga qoʻyiladigan talablar quyidagilardan iborat.

- tovush va soʻzlarni aniq, toʻgʻri talaffuz eta olish
- 3000 tadan ortiq soʻzni tushintirishi va bilishi
- rasmga qarab gap tuza olish
- ertak va hikoyani tinglash, mazmunini tushunish
- eshitgan kichik ertak va hikoyani qayta soʻzlab bera olish
- taʼsirli nutqqa ega boʻlish
- kattalar va oʻrtoqlari bilan gaplashish madaniyatiga ega boʻlish

Xulosa qilib aytganda, nutq, uning rivojlanishi tafakkurning rivojlanishi bilan uzviy bogʻliqdir.

Foydalanadigan adabiyotlar.

1. *Mirziyoev Sh. M.* Tankidiy tahlil, qatʼiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak. - T., 2017.
2. *Mirziyoev Sh. M.* Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T., 2017.
3. Rozengrad-Pupko G.A. «Rech i razvitiye vospitaniya v rannem vozraste» М 1963 у.
4. Fomicheva T.B. «Vospitaniye u detey pravilnogo proiznosheniya» Moskva 1987 yil.
5. P.M. Poʻlatova “Oligofrenopedagogika” Toshkent 2005 yil.
6. V.S. Raxmanova “Maxsus pedagogika” Toshkent 2004 yil.
7. Vigotskiy.L.S. «Problema u otstalosti» Moskva 1956 yil.
8. Pod red. Dulneva. G.M.»Korreksionnaya rol obucheniya v shkole»M.1971 y. 7. M. Ayupova “Logopediya” Toshkent, 2007 yil.

УДК 616-092.19

РОЛЬ ПАМЯТНИКОВ ЗОДЧЕСТВО В ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИЕ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ.

Хакимова Наргиза Сунхоновна, БухГУ

Аннотация: в статье рассказывается об уникальном архитектурном и культурном памятнике древней Бухары—Чор Бакр. Также о роли этого памятника зодчество в духовно-нравственном воспитание младших школьников. Сам некрополь представляет собой довольно большой архитектурный комплекс, занесённый в каталог [ЮНЕСКО](#).

Ключевые слова: наследие, культура, архитектура, композиция, опыт, традиция.

Annotation: the article tells about the unique architectural and cultural monuments of ancient Bukhara - Chor Bakr. Also about the role of this monument architecture in the spiritual and moral education of younger students. The necropolis itself is a rather large architectural complex listed in the UNESCO catalog.

Key words: heritage, culture, architecture, composition, experience, tradition.

Узбекистан изобилует множеством архитектурных памятников и комплексов. Некоторые из них признаны шедеврами мировой архитектуры и привлекают огромное количество паломников и туристов.

Деревяная летопись Наршахий «История Бухары» извещает, что сын тюркского правителя Шери Кишвар основал Бухару и создал четыре селения вокруг города. В одно из них-кишлаке Сакматин (ныне Сумитан) сложился своеобразный архитектурный комплекс- Чар- Бакр.

MUNDARIJA

1-SHO'BA. MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARA VA NATIJALARI

Sayfullayev G'ulom Mahmudovich, Sayfullayev G'ulom Mahmudovich. TABIIY FANLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	3
Nizomova Shohista Shodiyevna, Ubaydullayeva Pokizabonu Qahramon qizi. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI NUTQ TOVUSHLARINI TALAFFUZ QILISHGA O'RGATISHISH.....	5
Хакимова Наргиза Супхоновна. РОЛЬ ПАМЯТНИКОВ ЗОДЧЕСТВО В ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИЕ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ.....	7
Н.С.Абдуллаева. КИЧИК МАКТАБ ЁШИДАГИ ЎҚУВЧИЛАРДА ДИҚҚАТ НАМОЁН БЎЛИШИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОБЪЕКТИВ ВА СУБЪЕКТИВ ОМИЛЛАР.....	10
Кубаева Мавлуда Бахтиёр қизи. МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ АТРОФ-МУҲИТНИ ҲИССИЙ БИЛИШ ЖАРАЁНИ.....	14
Saidova Laylo Nasridinovna, Husenova Dilnoza Faxriddin qizi. MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK METODLARDAN KENG FOYDALANISH VA TARBIYACHI KASB MALAKASI.....	16
I.E.Davronov, G.Sh.Shodieva. MAKTABGACHA TA'LIM VA TARBIYADA BOLALARNING BOG'LANISHLI NUTQINI O'STIRISH MAZMUNI.....	18
D.A.Sattarova. MAKTABGACHA TARBIYA YOSHDAGI BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASH VOSITALARI.....	19
Abdixoliqova Hanifaoy Ikromjon qizi UMUMMILLIY QADRIYATLAR - MILLIYLIGIMIZ TIMSOLI.....	22
G'aniyeva Shohida Sobirovna, Idiyeva Gulchehra Toirovna. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYACHILARNING VAZIFALARI.....	24
Salimova Gulnoza Shuxratovna. MTTDA BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISHIDA HARAKATLI O'YINLARDAN FOYDALANISH METODIKASI.....	26
Inoyatova Fotima, Izatullaeva Dilnavoz OILADA BOLALARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH MAZMUNI.....	28

2-SHO'BA. MAKTABGACHA TA'LIM VA O'RTA UMUMTA'LIM MAKTAB HAMKORLIGI, O'ZARO INTEGRATSIYADAGI YUTUQ VA MUAMMOLAR

Масуда Абдуллаева Абдубаннаевна, Эргашева Умринисо, Асимжонова Муниба. МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЁШИДАГИ БОЛАНИНГ ТАРБИЯЛАШДА ОИЛА, МАХАЛЛА ВА НОДАВЛАТ НОТИЖОРАТ ТАШКИЛОТЛАРИ ХАМКОРЛИГИ.....	30
Ismatova Halovat Baxtiyorovna. TARBIYASI OG'IR VA BO'SH O'ZLASHTIRUVCHI O'QUVCHILAR O'QUV-BILUV FAOLIYATI DARAJALARINI TASHXISLASH TAMOYILLARI.....	32
Бадиев Махмуд Маъруфович, Шарофитдинова Шохсанам Хайрулло қизи. КОМПОЗИЦИОННЫЕ СПОСОБНОСТИ УЧЕНИКОВ ШКОЛЫ НА ЗАНЯТИЯХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНЫМ ИСКУССТВОМ.....	33
Ashurov O'ktam Rustamovich. O'QUVCHILARDA JISMONIY TARBIYA ORQALI ESTETIK TARBIYA BERISH USULLARI.....	35
I.T.Jo'rayev. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOSLIGI.....	37